

HARBIY REALIYALARNING INGLIZ TILIGA TARJIMA XUSUSIYATLARI

PhD.dots.

Otajanova Lola Ozodovna

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqining tarixiy-harbiy leksikani aks ettiruvchi harbiy realiyalarning ingliz tiliga tarjima qilinishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda zanburak, zubin, jazoir va separ kabi tarixiy qurol-yarog' nomlarining tarjima xususiyatlari qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganilgan. Tarjima jarayonida qo'llangan tavsifiy tarjima, transliteratsiya, analog, umumlashtirish kabi strategiyalarning realiyalarning semantik mazmuni va milliy-madaniy koloritini saqlashdagi o'rni baholangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy realiyalarni tarjima qilishda denotativ ma'noni yetkazish bilan bir qatorda ularning tarixiy va lingvomadaniy xususiyatlarini saqlash ham tarjimaning adekvatligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari badiiy matnlardagi harbiy realiyalar tarjimasini takomillashtirish hamda lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish metodologiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: harbiy realiya, lingvomadaniyat, tarjimashunoslik, badiiy tarjima, tarixiy leksika, qurol-yarog' nomlari, tavsifiy tarjima, transliteratsiya, funksional ekvivalent, umumlashtirish, milliy kolorit, adekvat tarjima.

Kirish. Har bir xalqning harbiy tarixi va jangovar madaniyati uning tilida o'z aksini topgan bo'lib, qurol-yarog', harbiy lavozim va jang usullarini ifodalovchi leksik birliklar milliy-madaniy xususiyatlarni mujassamlashtiradi. Bunday birliklar tarjimashunoslikda harbiy realiyalar sifatida e'tirof etiladi. Harbiy realiyalar muayyan tarixiy davr va madaniy muhitga xos bo'lganligi sababli, boshqa tillarda ularga mos keluvchi to'liq leksik ekvivalentlar ko'pincha mavjud bo'lmaydi [3; 8]. Shu bois tarjimon ushbu birliklarni tarjima qilish jarayonida nafaqat ularning lug'aviy ma'nosini, balki tarixiy, madaniy va funksional xususiyatlarini ham qayta ifodalashi zarur bo'ladi [1; 5].

Tarjimashunoslikda realiyalarni tarjima qilish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. P.Newmark madaniy birliklarni tarjima qilishda deskriptiv tarjima, funksional ekvivalent va transliteratsiya kabi usullarning samarali ekanligini ta'kidlaydi [3]. E.Nayda va C.Taber esa tarjimada kommunikativ ta'sirni saqlashga xizmat qiluvchi funksional ekvivalent tamoyilini ilgari suradilar [5]. S.Vlahov va S.Florin realiyalarni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida baholab, ularni

tarjima qilishda milliy koloritni saqlash zarurligini asoslaydilar [8]. L.Venuti esa tarjimada foreignization va domestication strategiyalarining madaniy birliklarni qayta yaratishdagi o‘rnini yoritadi [7]. Mazkur maqolada Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari hamda Yuriy Bregel tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjima materiallari asosida tarixiy harbiy realiyalarning tarjima xususiyatlari tahlil qilinadi [9; 10]. Tadqiqotning asosiy maqsadi *zanbarak*, *zubin*, *jazoir* va *separ* kabi tarixiy harbiy realiyalarning ingliz tilida qay darajada adekvat ifodalanganini aniqlash, qo‘llangan tarjima strategiyalarini baholash hamda ularning milliy-madaniy koloritni saqlashdagi samaradorligini ko‘rsatishdan iborat.

Tahlil va muhokama. Tahlil qilinayotgan birliklar Xiva xonligining tarixiy harbiy madaniyatini aks ettiruvchi harbiy realiyalar hisoblanadi. Bunday realiyalar muayyan xalqning harbiy qurollanishi, jangovar an‘analari va tarixiy turmush tarzini ifodalovchi milliy-madaniy birliklar bo‘lib, boshqa tillarda ularning to‘liq leksik ekvivalenti ko‘pincha mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli ularni tarjima qilish jarayonida tarjimon nafaqat denotativ ma‘noni, balki realiyaning tarixiy va madaniy mazmunini ham imkon qadar saqlashga intiladi. Tarjimashunoslikda bunday birliklarni tarjima qilishda transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent va umumlashtirish kabi strategiyalar keng qo‘llaniladi [1; 8].

Asliyatdagi *zanbarak* realiyasi tarjimada quyidagicha ifodalangan: “*zanburak va shamxol o‘qi*” (188) \ “*the swivel guns (zanburak) and heavy muskets (shamkhal)*” (174). *Zanbarak* Sharq harbiy san‘atiga xos tarixiy realiya bo‘lib, odatda tuya yoki otga o‘rnatilib harakatlantiriladigan kichik aylanuvchi to‘pni anglatadi [10; 14]. Mazkur qurol XVII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo, Eron va Afg‘oniston harbiy amaliyotida keng qo‘llangan. Ingliz harbiy terminologiyasida ushbu qurolning aynan o‘ziga mos leksik birlik mavjud emas. Shu sababli tarjimon deskriptiv tarjima va transliteratsiya strategiyalarini uyg‘unlashtirgan [3; 7]. *Swivel gun* qurolning vazifasi va konstruktiv xususiyatini ifodalasa, qavs ichida keltirilgan *zanburak* leksemasi realiyaning milliy nomini saqlab qoladi. Natijada o‘quvchi qurolning vazifasini anglash bilan birga, uning Sharq harbiy madaniyatiga mansub tarixiy realiya ekanligini ham bilib oladi. Bu usul Venuti ta’riflagan foreignization strategiyasiga mos kelib, milliy koloritni saqlashga xizmat qiladi [7].

Asar matnida yana bir nechta harbiy leksika o‘rin olgan bo‘lib, *zubin* realiyasi ham mavjud bo‘lib, tarjimon tomonidan ingliz tiliga quyidagicha o‘girilgan: “*...mo‘g‘ullar o‘q va zubin zarbi bila...*” (244) \ “*The Mongols showered arrows and javelins upon them...*” (238) O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra, *zubin* temirdan yasalgan uloqtiriladigan nayza bo‘lib, qadimgi turkiy va fors harbiy an‘analariga

mansub tarixiy qurol hisoblanadi [14]. Tarjimada u javelin leksemasi bilan ifodalangan. Mazkur birlik qurolning asosiy funksiyasini to'g'ri ifodalagani sababli tarjimon funksional ekvivalent strategiyasidan foydalangan [1; 5]. Biroq ingliz tilidagi *javelin* umumiy harbiy termin bo'lib, *zubinning* tarixiy va etnomadaniy xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Natijada realiyaning denotativ ma'nosi saqlangan bo'lsa-da, uning milliy-madaniy bo'yoqdorligi qisman neytrallashtirilgan. Agar *zubin* (*iron javelin*) yoki *zubin spear* shaklida berilganida, realiyaning tarixiy koloritini saqlash darajasi yuqoriroq bo'lgan bo'lardi [3; 7].

Aslyatda jazoir realiyasi mavjud: “*And the jazayirchi and shamkhalchi struck with the balls of their muskets.*” (364) \ “*Va jazoirchilar gululai jazoirni...*” (357).

Jazoir tarixiy harbiy realiya bo'lib, katta kalibrli miltiq yoki og'ir o'qotar qurolni bildiradi, *jazoirchi* esa mazkur quroldan foydalanuvchi jangchini anglatadi [10]. Tarjimada esa ushbu realiya *musket* orqali ifodalangan. Tarjimon bu yerda funksional ekvivalent va umumlashtirish strategiyalaridan foydalangan [1; 3]. Bunday yondashuv matnning umumiy mazmunini saqlab qolgan bo'lsa-da, realiyaning tarixiy va etnografik xususiyatlarining bir qismi yo'qolgan. Ayniqsa, *jazoir* va *shamxol* o'rtasidagi farqlar inglizcha tarjimada deyarli sezilmaydi. Natijada realiyaning milliy koloriti pasaygan.

Yana bir misolda separ realiyasi tarjimasi tahlil qilinadi: “*jom va separ bila...*” (192) \ “*using cups and shields...*” (178). *Separ* Sharq jangchilari foydalanadigan qo'l qalqonini bildiruvchi tarixiy harbiy realiyadir [14]. Ingliz tilida ushbu predmetga mos *shield* leksemasi mavjud bo'lgani sababli tarjimon to'g'ridan-to'g'ri leksik ekvivalent strategiyasidan foydalangan [2; 3]. Ushbu tarjima predmetning asosiy ma'nosini to'liq saqlaydi, biroq *separ* so'zining Sharq harbiy madaniyatiga xos tarixiy-uslubiy bo'yoqdorligi ingliz tilidagi umumiy termin bilan almashgan. Demak, realiyaning denotativ komponenti saqlangan bo'lsa-da, uning lingvomadaniy komponenti qisman neytrallashtirilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan *zanbarak*, *zubin*, *jazoir* va *separ* birliklari o'zbek xalqining tarixiy harbiy madaniyatini aks ettiruvchi harbiy realiyalar hisoblanadi. Tarjima jarayonida ushbu realiyalarni ifodalashda tavsifiy tarjima, transliteratsiya, analog, umumlashtirish strategiyalaridan foydalanilgan [8]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, *zanbarak* realiyasi tarjimasida milliy kolorit eng yuqori darajada saqlangan bo'lsa, *zubin* va *jazoir* misollarida tarixiy-madaniy ma'lumotning muayyan qismi neytrallashtirilgan. *Separ* esa semantik jihatdan muvaffaqiyatli tarjima qilingan bo'lsa-da, uning tarixiy-madaniy bo'yoqdorligi umumiy inglizcha termin bilan qoplangan.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, harbiy realiyalarni tarjima qilishda yagona universal strategiya mavjud emas. Tarjima usuli realiyaning semantik

xususiyati, tarixiy o‘ziga xosligi hamda maqsad tilidagi ekvivalentning mavjud yoki mavjud emasligiga qarab tanlanadi. Tadqiq qilingan misollar orasida zanbarak realiyasida deskriptiv tarjima va transliteratsiyaning uyg‘un qo‘llanishi milliy koloritni eng muvaffaqiyatli saqlagan bo‘lsa, zubin va jazoir realiyalarida funksional ekvivalent hamda umumlashtirish strategiyalari qo‘llanilishi natijasida tarixiy-etnografik axborotning bir qismi neytrallashtirilgan. Separ realiyasi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri leksik ekvivalent orqali mazmunan aniq ifodalangan bo‘lsa-da, uning milliy-madaniy bo‘yoqdorligi umumiy termin bilan qisman yo‘qolgan. Demak, tarixiy harbiy realiyalarni tarjima qilishda semantik aniqlik bilan bir qatorda madaniy koloritni ham saqlash tarjimaning adekvatligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, ekvivalenti mavjud bo‘lmagan realiyalarni tarjima qilishda transliteratsiyani qisqa izoh yoki deskriptiv tarjima bilan uyg‘unlashtirish eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. London & New York: Routledge.
2. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press.
3. Chesterman, A. (2016). Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory. Revised ed. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
4. Florin, S. (1993). Realia in Translation. In: Zlateva, P. (Ed.), Translation as Social Action: Russian and Bulgarian Perspectives. London: Routledge.
5. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
6. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill.
7. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. Amsterdam & Philadelphia: John Benjamins. (Original work published 1958).
8. Venuti, L. (2018). The Translator's Invisibility: A History of Translation. 3rd ed. London & New York: Routledge.
9. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). Непереводимое в переводе [Untranslatable in Translation]. Москва: Международные отношения.
10. Otajanova, L. (2023). Tarixiy asarlar tarjimasida kiyim-kechak leksemasining ifodalanishi. (2023.7), 125–128.
11. Munis Xorazmiy, Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
12. Рахматуллаев, Ш. (2006). Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи.

13. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2002–2005). O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

14. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2006–2008). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

